

JADIDCHILIK G'OYALARINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDAGI AHAMIYATI

Jumayev Bekzod Boymurod o'g'li

DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL tarix fani bosh o'qituvchisi

Safarov Shohjahon Bozor o'g'li

DXX CHQ “Yosh chegarachilar” HAL 2-bosqich o'quvchisi.

Annotatsiya: Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohatlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar.

Jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati, o'lka ozodligi yo'lida ko'rsatgan ulkan matonatlari, milliy harakatning bugungi kun yoshlarini tarbiyalashdagi o'rni, shuningdek, ularning ezgu niyat va maqsadlarining ro'yobi uchun qilgan cheksiz izlanish va mehnatlari aks etgan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, Behbudiya, Turon, Ibratxona, “Munozora, milliy harakat, istiqloq, ma'naviyat, komil inson, yoshlar tarbiyasi, yangi usul maktablari, Behbudiya, Renessans, Yangi O'zbekiston

KIRISH.

Bugun dunyoda kechayotgan jarayonlar bir asr oldingi saboqlarni eslashga, ulardan xulosa chiqarib, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikka undamoqda. Zero, Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomada alohida ta'kidlaganidek, bugungi dunyo hayoti har qachongidan ham murakkab, ziddiyatli, xavfli ko'rinish olgan.

XXI asrga kelib, shubhasizki, buyuk, uzoq va yaqin tariximizni o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni qurishda tarixning o'rni haqida fikr bildirar ekanlar “Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida jadidchilik harakati to'g'risida alohida to'xtalib, jumladan shunday dedi: “Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini

milliy uygʻonish gʻoyasiga bagʻishlab, oʻlkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni gʻaflat botqogʻidan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yoʻlda ular oʻzlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy eʼtiqod deb bildilar”, – deya taʼkidlagan edilar.

Yurtboshimiz raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni boʻlib oʻtgan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat Kengashining kengaytirilgan yigʻilishida bugungi jamiyatimiz oldida turgan eng muhim masalalar roʻyi-rost tahlil etilib, koʻp yillardan buyon maʼnaviy hayotda oʻz yechimini kutib turgan muammolarni uzil-kesil hal qilishning dadil amaliy qadamlarini tashlab berdi desak aslo adashmagan boʻlamiz. Prezidentimiz oʻz maʼruzalarida tarixga, jadid taraqqiyparvarlarining eng nozik va tahlikali zamonda maydonga chiqib, vatan, millat uchun jasorat koʻrsatganliklariga alohida eʼtibor qaratdilar. Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbusi bilan 2024-yilning ilk kunida “Jadid” gazetasi chop etildi. Ushbu nashr Vatan va xalq manfaatlarini yoʻlida jon fido qilgan millat oydinlari – jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targʻib etishda oʻziga xos tafakkur maydoni boʻlib xizmat qiladi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilgʻor maʼrifatparvarlar davlat mustaqilligini yoʻqotilishiga asosiy sabab, Oʻrta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligi ekanini juda yaxshi tushunib yetgan. Ular turli ijtimoiy qatlamlarning orasidan chiqqan va eng asosiysi zakovatli boʻlib, ilgʻor ziyolilarning birinchi avlodi boʻldi. Ana shu negizdan keyinchalik jadidlar yetishib chiqib ularning gʻoyalarini rivojlantirdi va maʼrifatdan siyosatga qarab yoʻl oldi.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski taʼlim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qoʻyish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra ular, ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-xarajatlarga olib keluvchi anʼanaviy odatlarga tanqidiy yondashgan. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi maʼrifatparvarlar boshlab bergan boʻlsa, ularning gʻoya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxoʻja Poʻlatxoʻjaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat rivojlantirdi.

Aslida jadidlik rasman XIX asrning oxirida oʻz amaliy faoliyatini boshlagan boʻlsa-da, ularning gʻoyalari shu asrning boshidayoq (oʻn toʻqqizinchi asrning boshida) oʻz taʼsirini namoyon qilayotgan edi. “Turkistonda ilk bor Ovrupa texnikasini oʻrganish kerakligi masalasini Qoʻqon xoni Sayid Muhammad Hakimxon Rossiya, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarga sayohat qilib qaytgach, 1843 yilda birinchi boʻlib oʻrtaga qoʻygan”. Tashqi olam bilan tanishish Turkistonliklarning orasida falsafiy mushohadasi taraqqiy qilayotgan yoshlarni tarbiyalay boshladi. Bundan koʻrinadiki, tashqi olam bilan tanishish, oʻzga millat va davlatlarning tarixi,

madaniyati, Turkiston yoshlarining tafakkurini o'zgartirgan ilk sabablardan biridir. Tarixdan ma'lumki, hamma vaqt globallashuv jarayoni mavjud bo'lgan, faqat o'zini sekinlik bilan namoyon etgan. Mana shunday jarayonlarning natijasi o'laroq jadidlik ta'limoti o'zini turli yo'llar bilan namoyon qila boshladi. Turkistonda jadidlik g'oyalari va harakatining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy zamini XIX asrning oxirgi choragiga kelib to'liq yetildi.

Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi o'lka iqtisodiyotini yuksaltirishda xonlik tuzumiga nisbatan birmuncha qulay zamin yaratdi. Mahalliy aholining turmush tarzini o'zgartirish maqsadida bank, vokzal, bosmaxona, zavod kabi yangiliklar kirib kela boshladi. Temir yo'llar qurildi, yangi iqtisodiy aloqalar paydo bo'ldi, litografiyalar vujudga keldi. Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan "Tarbiyati atfol", "Umid", "Nashri maorif", "Barakat", "G'ayrat", "Taraqqiy parvar" kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma'naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko'tarishga intildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", Samarqandda "Samarqand", "Oyna", "Hurriyat", "Shu'lai Inqilob", "Mehnatkashlar tovushi", "Bolalar yo'ldoshi", "Tayoq majmuasi", davriy "Sharq", "Yosh kuch", "Zarafshon", Buxoroda "Turon", "Buxoroi Sharif", Qo'qonda "Sadoyi Farg'ona" kabi o'nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'z davrining ijtimoiy-falsafiy tafakkuri milliy ozodlik xarakteriga ega bo'lgan. Shunday vaziyatda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy harakatlardan biri – jadidlik vatanni mustaqillikka olib chiqish va milliy o'zlikni anglash tadbirlaridan biri edi. Ma'lumki, milliy o'zlikni anglash muayyan millatning ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy-madaniy hayotini, qadriyatlarini, shuningdek, tabiatini bilishdir. Jadidlik mana shunday maqsadlarni ko'zlab shakllandi va rivojlanib bordi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko'rinishdagi ta'lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta'lim bera boshlagan bo'lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloch yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida o'ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi. Shu o'rinda jadid maktablarining faoliyati haqida bo'lgan quyidagi fikrga e'tibor bersak, "Biz turkistonliklar ham 15 yil bo'ladirki, bu dunyoda o'zgalardek taraqqiy va toliq etmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg'iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg'a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik". 1910 yili bu "usuli jadid", ya'ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirolmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan "ko'rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surish

maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lgan”. Ammo jadidlik ta’limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o‘z mavqeini tiklab bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati shundaki, A.Donish, Furqat, Muqimiy singari mutafakkirlar, Ibrohim Mo‘minov ta’kidlaganidek, adolatning va inson aqlining tantanasiga qarshi tanqid bayrog‘ini ko‘tarib chiqdi. Bu bayroqni keyinchalik Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza va Cho‘lpon kabilar yangi bosqichga ko‘tardi. “XX asrning avvalida jahon miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi voqealar, 1905 yilgi rus revolyusiyasi, Turkiston xalqlarining ongida demokratik tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Bunday siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ijtimoiy tafakkurning taraqqiyotiga ta’sir etmay qolmadi. Yashirin bildirilgan demokratik talablar, ma’rifatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari tobora oshkora bayon etiladigan va ayrim kishilarning hayot tarzi va maqsadlariga aylangan edi. Ana shu davrda shakllangan jadidlar ikki tomonlama tanqid ostida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng jadidlar “qizil zambaraklar”dan o‘qqa tutildi”, demak ilg‘or fikrli jadidlar o‘z davrining qurboniga aylandi.

Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o‘z ta’rifini berishgan. Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo‘jayev birinchilardan bo‘lib harakatni ikki yo‘nalishda bo‘lganini ko‘rsatib bergan: “Shunday qilib, sentabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktabr va uning oqibatlari tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo‘lgan ikki qismga bo‘lindi: Uning birinchi qismi Buxoro Kommunistik partiyasiga kirib, o‘z taqdirini Oktabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo‘shdi va birlashtirdi. Jadidlarning Oktabrgacha bo‘lgan qismi esa fevralgachagi pozitsiyalarda qolib o‘zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi” [9:190].

Turkistonda o‘z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko‘ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosiy maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko‘rish mumkin. “Turkiston jadidlari ham Buxoro jadidlari singari tabaqalanish yo‘lidan bordi. Turkiston jadidlarining katta qismi revolyutsiyani tushunmadi va uning ilgarigi milliy burjua ideologiyasida qolaverdi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlarning faoliyati revolyutsiyadan oldingi va revolyutsiyadan keyingi bosqichlarga ajralgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi milliy harakatlar, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Toshkentdagi ziyolilarning faoliyatlaridagi o‘zaro birlik va o‘ziga xoslik holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida

jadidlikning siyosiy bosqichiga ko'tarildi. O'z davrining ko'zga ko'ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o'z-o'zini anglashning o'sishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi.

O'z davrida dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy – ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi.

Bugungi kunda jadidlar haqidagi sakkiz jildli kitoblar to'plami nashr etildi. Sakkiz nafar jadidlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan risolalarni turli muallif yozgan bo'lib: Olimlarimiz Usmonov G'ulom Zafariy, Dilmurod Qur'onov Abdulhamid Cho'lpon, Ulug'bek Dolimov Is'hoqxon To'ra Ibrat, Hamidulla Boltaboyev Abdurauf Fitrat, Bahodir Karimov Abdulla Qodiriy, Oltinbek Olim Abdulla Avloniy, Sotimjon Xolboyev Munavvarqori qori Abdurashidxonov, Zaynobidin Abdirashidov Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi jildni qalamga olgan. Ushbu to'plam dastavval 2022-yilda Yoshlar nashriyot uyida yumshoq muqovali, lotin yozuvida, cho'ntak kitobi sifatida nashr etilgan. Loyihaga Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev rahbarlik qilgan. To'plamga qiziqqan shaxslar va tashkilotlarga bepul tarqatish ishlari olib borilgan. To'plam e'lon qilinishi bilanoq ommalasha boshladi. Xususan, jadidlarga e'tibor, risolalarning o'ziga xos dizayni hamda to'plamga kiritilgan ma'lumotlarning foydaliligi ko'pchilik insonlarda qiziqish uyg'otdi. dastlab bepul tarqatilgani ijtimoiy tarmoqlarda qizg'in muhokama qilindi. Ushbu to'plamga kiritilgan risolalar mualliflarining har biriga 10 million so'mdan gonorar puli ajratilgan. "Jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noning o'ziyoq jadid bobolarimizning Turkiston o'lkasiga yangiliklar olib kirishni maqsad qilganliklarini tasdig'i bo'la oladi.

Jadid ziyolilarimiz dunyoning turli burchaklaridagi taraqqiyot, yangiliklar uchun olib borilgan harakatlar tajribasiga tayanishga harakat qilganlar hamda ushbu g'oyalarni milliy qadriyatlarimizga moslashtirib taraqqiyot yo'limizni yaratishga intildilar. Mustamlakachilik va zulmga qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib, sayqallanib bordi. Jadid ma'rifatparvarlarimiz ham mana shunday umuminsoniy g'oyalar, fikrlarni keng jamoatchilikka singdirishga, shu yo'l bilan jamoatchilik fikrini o'zgartirishga harakat qilishdi.

Jadidchilikning tariximizda tutgan ahamiyati va o'rnini bir nechta ustuvor jihatlarda ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, ular mustaqillik milliy mafkurasiga asos yaratdilar.

Ikkinchidan, ular g'aflat uyqusida yotgan mazlum Xalqni uyg'otdilar, ozodlik, milliy g'urur, buyuk ajdodlarimizning boy madaniyati haqida baralla so'zladilar, unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldilar.

Uchinchidan, jadid maʼrifatparvarlarimiz jamiyatda yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda tadrijiy (bosqichma-bosqich) islohot yoʻli bilan hal qilish usullarini ishlab chiqdilar.

Toʻrtinchidan, ijtimoiy-davriy tuzum oʻzgarishlarining eng makammal, samarali yoʻlini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yoʻq qilishga harakat qildilar. Chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosati jamiyatdagi muammolarni hal qilishda hech qanday ijobiy sifatlarga ega emas edi desak oʻylaymanki adolatdan boʻladi. Aksincha, Chor amaldorlari ziyolilarimizga imkon qadar koʻproq tazyiq oʻtkazishga va shu orqali oʻzlarining chirkin gʻoya hamda maslaklarini saqlab qolishga harakat qildilar. Shuning uchun ham jamiyatning ziyoli vakillari mamlakatni qoloqlik botqogʻidan olib chiqish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishning yagona yoʻlini maʼrifatdan izlay boshladilar. Ilgʻor ziyolilarning bu intilishlari qisqa muddat ichida mintaqadagi maʼrifatparvarlikni katta gʻoyaviy hamda nazariy oqimga aylantirilishga intildilar va oʻz hissalarini qoʻshdilar.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh gʻoyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: “Tarixdan shu narsa maʼlumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini oʻtaydi. Bu kungi magʻlubiyat ertangi gʻalabaning amalga oshuvida ozmi-koʻpmi rol oʻynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin”.

Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning maʼnaviy ongini oshirish, oʻz vazifasini oʻtay olmay qolgan eskicha taʼlim tizimiga yangicha innovatsion gʻoyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini oʻrnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

XULOSA.

Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim boʻlgan barcha sohalarda innovatsion gʻoyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini oʻzgartirishni, ularning maʼnaviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy taraqqiyotini taʼminlash gʻoyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik gʻoyalari bilan yoʻgʻrilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni

biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi. Biz ushbu maqolada mamlakatimiz xududida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma‘rifatparvarlik soxasidagi faoliyatiga to‘xtaldik. Jadidchilik harakatining ijtimoiy –siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g‘oyalari (Munavvarqori, Behbudiy, Polvonniyoz Yusupov, Fitratning dasturlari), bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari aloxida katta mavzudir. Jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma‘naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas‘uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida Jadidlarning g‘oyalarini o‘rgatish va amaliyotga va tadbqiq etish muhim vazifalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M., “Yangi O‘zbekiston Demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”, “O‘qituvchi” MU, 2021 92-bet 2. Iqbol Mirzo. “Birlashmoq davri”, Jadid adabiy, ilmiy-ma‘rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi. 2024-yil 1-yanvar. №1 3. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. T.: Tafakkur qanoti, 2015
2. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.
3. Tulak. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
4. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma‘rifat, fidoiylilik. –T., Ma‘naviyat, 2002.
5. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta‘lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.
6. Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// “Xalq ta‘limi”, 1993, 1-son.
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.
8. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1918 yil 9 iyul.
9. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
10. Xo‘jayev. Tanlangan asarlar: uch tomlik. –T.: Fan, 1976. 1-tom.
11. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.

- 12.Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
- 13.Baxrom Irzaev. “O`zbek yoshlari va xorijiy ta`lim” T., “Akademnashr” 2018.
- 14.Behbudiy B.“Tiyotr nadur”, “Oyina” jurnali, 1914 yil 10 may, №29. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 15-bet.
- 15.Sabirdinov A. O`zbek romanchiligi; kecha va bugun. Izlanishlar samarasi. // O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 2005 yil 28 yanvar. 9. Behbudiy B.“Ikki emas, to`rt til lozim”, “Oyina” jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, -2018yil 396

